

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRILIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

O‘zDJTU rektor

I. Tuxtasinov

2026-yil

**Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga kiruvchilar uchun
23.00.02- Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar
ixtisosligidan**

DASTUR

Toshkent – 2026

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar mutaxassisligi bo'yicha tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka kirish imtihoni dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining kafedra majlisida muhokama qilindi va _____ 2026 yilda foydalanishga tavsiya etildi.

Tuzuvchilar:

Saidov Sanjar Shavkatovich	- Siyosiy fanlar kafedrasini mudiri, s.f.d., professor.
Muitov Davron Sobirovich	- Siyosiy fanlar kafedrasini dotsenti, s.f.n.
Zamonov Zokir Turg'inovich	- Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri, PhD., dots.
Davronova Feruza Raxmonovna.	- Siyosiy fanlar kafedrasini dotsenti, PhD.
Yarmuxamedova Irodaxon Nosir qizi	- Siyosiy fanlar kafedrasini dotsenti, PhD.

Taqrizchilar:

Jo'raev N.Q.	- ISFT Instituti rektori maslahatchisi, s.f.d., professor.
Yakubov Baxtiyor sultonnazirovich	- O'zLiDeP Siyosiy kengashi raisi o'rinbosari, s.f.d., professor.

MUNDARIJA

1. Kirish.....
2. Imtihon tuzilishi.....
3. Kirish imtihonlarini asosiy talablari.....
4. Siyosiy institutlar tushunchasi va mohiyati.....
5. Siyosiy jarayonlar tushunchasi va mohiyati.....
6. Siyosiy texnologiyalar tushunchasi va mohiyati.....
7. Adabiyotlar ro'yxati.....

KIRISH

Bugungi kunda siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalarning tadqiqot orqali o'rganish ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi siyosiy faoliyat, davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining ish usullarini, siyosat va insonning, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatini samarali tartibga solish vazifasini qo'ymoqda. Ana shu maqsad va talablardan kelib chiqqan holda tayyorlangan "Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar" fani dasturi siyosiy fanlar sohasida erishilgan yutuqlar bilan birgalikda, O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyatini qurish va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari hamda tajribalari, islohotlarning yangi bosqichidagi barcha yutuqlarni o'zida qamrab olgan. Chunki bu fan mamlakatimiz taraqqiyotiga yo'naltirilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ilgari surilgan konseptual g'oyalarni o'zida aks ettiradi.

SIYOSIY INSTITUTLAR, JARAYONLAR VA TEXNOLOGIYALAR FANINING OBYEKTI VA PREDMETI

Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar tufayli insoniyat tarixida davlat, byurokratik apparat, siyosiy partiya, armiya kabi institutlarning vujudga kelishi. Siyosiy institutlar va jarayonlar to'g'risidagi bilimlar tarixi. Insoniyat oldida siyosat olamidagi o'zgarishlarning murakkabligini his qilish, idrok etish. Siyosiy institutlar va jarayonlarning mazmuni. Siyosiy harakatlarni amalga oshirish va siyosiy qarorlarning sifatiga ta'sir qiluvchi siyosatni anglash va tushunish darajasiga talablarning kuchayishi. Hokimiyat va siyosiy boshqaruv, siyosiy tizimlar, jarayonlar, munosabatlar, siyosiy ong, xatti-harakatlar. Fuqarolarni uning ijtimoiy taraqqiyot qonunlaridan xabardor qila olishi. Siyosiy institutlar va jarayonlarning ilmiy asoslari. Siyosiy muammolarni tizimli tadqiq etish.

SIYOSIY HOKIMIYAT

Siyosiy hokimiyatning tabiati va o'ziga xos xususiyatlari. Tadqiqotlarda hozirgi paytda hokimiyat munosabatlarida bilimning o'рни va ahamiyati. Hokimiyat uchun kurash doirasidagi tasavvurlarda siyosiy bilimning ahamiyati.

Jamiyatni boshqarish tamoyillari va mexanizmlari. Davlat hokimiyatining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy muammolari. Jamiyatning siyosiy sohasini uning asosiy resursi bo'lmish hokimiyat orqali shakllantirilishi. Hokimiyat-siyosiy fanlarning markaziy kategoriyalaridan biri. Hokimiyat siyosatning o'zagi sifatida. Hokimiyat resurslari va strukturasi. Hokimiyatning asosiy komponentlari. Hokimiyatning subyekti. Hokimiyat subyekti – xohish-istak, manfaatlarning va topshiriqlarning ijrochisi sifatida. Hokimiyat - o'z obyektni bo'ysundiruvchi kuch, hukm o'tkazish, bo'ysundirishga qaratilgan bir qator omillardan tarkib topishi.

Legitimlilik. "Hokimiyat"ga ega bo'lishning oshkora, rasmiy va yashirin ko'rinishlari. Uning o'ziga xosligi.

DAVLAT SIYOSIY INSTITUT SIFATIDA

Zamonaviy davlat tushunchasi. Davlat siyosatining jamiyat siyosiy faoliyati tizimidagi ustuvor mavqei. Davlat-jamiyat siyosiy tizimining muhim va tarkibiy qismi. Davlatning fuqarolar siyosiy faolligi orqali qudratli kuch timsoliga aylanib borishi. Davlat atamasi. Davlatning maksimal hokimiyat to'play olishi. Davlat va jamiyat atamalari o'rtasida farqni ko'rsatib bergan dastlabki olimlar. Davlat jamiyat siyosiy tizimining markaziy instituti. Davlatning yagona hududga va uni boshqarishda xalqning ko'pchiligi tomonidan qonunlar orqali shakllanishi.

SIYOSIY REJIM VA SIYOSIY JARAYON

Siyosiy rejimlar va jamiyatning siyosiy hayoti. Uning o'zgaruvchanligi, barqarorligi, davomiyligi. Hokimiyat uchun kurash va uni ushlab qolish mexanizmi orasidagi jarayonlar siyosiy rejimning kulminatsion nuqtasi. Siyosiy hayotdagi aksado, uning ko'rinishlari, ta'riflari. Jamiyatda siyosiy hayotning faollashuvi. Ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida qarorlarning qabul qilinishi, ularning davlat-jamiyat munosabatlarida o'ziga xos ohangga ega bo'lishi. Jamiyatdagi ijtimoiy konfliktlar va qarama-qarshiliklarga ta'sir o'tkazmaydigan ishtirok siyosiy hisoblanmasligi. Faol siyosatga jalb qilinish. Siyosiy jarayon siyosiy hayotning yaxlit funksional ko'rinishi sifatida. Siyosiy jarayon siyosiy hokimiyat burchlarining mohiyatini ochib berishi. O'zbekistonda siyosiy jarayonlar. Uning jahon siyosiy hayoti, siyosiy institutlar va jarayonlar bilan bog'liqligi.

SIYOSIY ELITA VA SIYOSIY YETAKCHILIK

Siyosiy elita tushunchasi. Jamiyatning barcha sohalarida yetakchilik fenomenining mavjudligi. Yetakchilik guruhiiy faoliyatning integratsiyasi uchun mexanizmning bir turi sifatida. Yetakchilikning turli ijtimoiy guruhlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi. Inson faoliyati va liderning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Yetakchilikning turli shakllari orasida siyosiy liderlik, siyosiy yetakchilikning muhim o'rin tutishi. Uning hokimiyat fenomeni bilan bevosita bog'liqligi. Xalqaro munosabatlarda siyosiy yetakchilik davlatlarning yetakchilik darajasidan kelib chiqishi. Haqiqiy yetakchi fenomeni. Siyosiy elita-davlat hokimiyatidan foydalanish bilan bog'liq qarorlarni qabul qiluvchi va amalga oshiruvchi guruh. Ularning hokimiyat uchun ochiq va yashirin kurash davomida shakllanishi va o'zgarib borishi. Siyosiy elitaning mavjud bo'lish sabablari. Elitaning hukmron, muxolifatdagi oliy va o'rta, ma'muriy elitalarga bo'linishi. An'anaviylik, harizmatik, ratsional-oshkora yetakchilik. Konservatorlar, reformatorlar, inqilobchilar,

fozil rahbar, rahnoma, yurtboshi, mamlakat yetakchisi tushunchalari. Global muammolar va hozirgi davrda siyosiy yetakchilik rivojining yangi tendensiyalari.

SIYOSIY MAFKURA VA SIYOSIY MADANIYAT

Siyosiy mafkura ijtimoiy borliqni anglatuvchi g'oyalar, qarashlar konsepsiyalarning tizimi sifatida. Siyosat - bu bugungi kunda manfaatlar to'qnashuvini anglatuvchi va ayni manfaatlar, qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar barobarida yuzaga keladigan hodisaga aylanishi. Muayyan yo'nalishdagi siyosiy manfaatlarning o'ziga xosligi. Ularning ayni siyosiy mafkuralar orqali siyosiy hokimiyatga ta'sir qilishda gavdalanishi. Hozirgi paytda siyosiy mafkuralarining progressiv, liberal, radikal, inqilobiy demokratik, konservativ, reaksiyon, millatchilik, diniy va boshqa shakllari. Siyosiy mafkura funksiyalari. Mafkura bilan siyosat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan hodisa ekanligi. Mafkuraning siyosatni yo'naltirib turishi. Uning intilishi lozim bo'lgan muayyan ideallar, qadriyatlar va maqsadlar tizimini ta'minlab berishi. Siyosatning ko'p jihatdan mafkuraviylashganligi. Jamiyat hayotida avtoritar tendensiyalarning yuzaga kelishi.

SIYOSIY TIZIM VA SIYOSIY BOSHQARUV

"Siyosiy tizim" tushunchasi. Mustaqillik va siyosiy tizimning o'zgarishi. Siyosiy tizimni shakllantirishda milliy davlatchilik negizlariga tayanish va an'analarni hisobga olish amaliyati. Hokimlik institutining tiklanishi. O'zbekistonning siyosiy tizimi. Siyosiy tizim elementlari: davlat, Prezidentlik instituti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Sud hokimiyati, Siyosiy partiyalar. Milliy davlatchilikni barpo etish.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Harakatlar strategiyasining asosiy ustuvor yo'nash va konseptual g'oyalari.

SIYOSIY PARTIYALAR VA O'ZBEKISTONDA JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH

Siyosiy partiyalar. Demokratiyani siyosiy partiyalar tufayli yuzaga kelishi. Zamonaviy demokratiyaning partiyasiz hech qanday ma'noga ega emasligi. Partiya so'zining ma'nosi. Zamonaviy demokratik davlatlarda siyosatni aholining ko'pchiligi tomonidan qo'llanayotgan siyosiy partiyalar belgilab berishi. Saylovchilarning ovozlari uchun kurash. Tinchlik yo'li bilan hokimiyat tepasiga kelish. Siyosiy partiya siyosiy ta'sir o'tkazishning asosiy manbasi. Partiya yetakchilarni hokimiyat tepasiga olib keluvchi mexanizm. Siyosiy partiyalarning jamiytdagi vazifalarini o'rganish. Siyosiy partiyalarning funksiyalari. Zamonaviy siyosiy partiyalarning bugungi ahvoli. Siyosiy hayot va ko'p partiyalik omili. "Ko'p partiyalik" tushunchasi. Siyosiy jarayonlarda siyosiy partiyalarning o'rni.

DEMOKRATIYA VA SAYLOVLAR TIZIMI

Demokratiya va adolatli huquqiy davlat barpo etish. Saylovlar tizimi va unga siyosiy-huquqiy tadbirlar belgilash zarurati. O'zbekiston Konstitusiyasi saylovlar tizimining muhim kafolati. Saylovlar boshqaruvda demokratik tamoyillarining amaldagi ifodasi. O'zbekistonda jamiyat rivojlanishining strategik yo'nalishlari. Fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlanishi. Saylovlar tufayli O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirishning izchil huquqiy mexanizmini yaratish.

XALQARO TERRORIZM VA DINIY EKSTREMIZM

Terrorizm – harakatlari inson tarixida yangilik emasligi. Terrorizm xatti-harakatlarining mazmuni va mohiyati. Xalqaro terrorizm. Uning siyosiy, iqtisodiy, diniy, g'oyaviy, irqiy, milliy, ruhiy va individual shakllari. Ekstremistik guruh a'zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko'rish. Qo'poruvchilikni sodir etishda xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog' savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanishi.

Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash. Jaholat ustun kelgan holatlarning o'tmishda ko'p uchrashi. Jaholatga qarshi kurashish, qabohatni barbod etish, insoniyat hayotini turli tahdid va tahlikalardan halos etish. Yoshlarimizning barkamol bo'lishi, milliy qadriyatlar asosida tarbiya topishi.

JA'HON SIYOSATINING MILLIY VA UMUMBASHARIY TAMOIYILLARI. XXI ASRDA DUNYO VA INSONIYAT ISTIQBOLI

Jahon siyosati tushunchasi. Davlatlar xalqaro hukumatlararo hamda nodavlat tashkilotlar, ittifoqlar, harakatlar. Jahon siyosati sohasi davlatlararo va davlatlar ustidan nazorat qiluvchi tashkilotlar siyosiy munosabatlarning maydonida. Jahon siyosatining asosiy elementlari. Jahon siyosatining asosiy muammolari. Insoniyat oldida turgan umumiy muammolarni hal qilish zarurati. Jahon siyosiy tizimi va jahon siyosatining asosiy subyektlari. Xalqaro hayotga ta'sir o'tkaza olishning asosiy vositalari. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Janubiy sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN), Yevropa Ittifoqi (YEI), Arab mamlakatlari ligasi (AML), Amerika davlatlari tashkiloti (ADT), Afrika birligi tashkiloti (ABT), Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO), Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT), Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) va boshqalar.

IMTIHONGA TAYYORGARLIK KO'RISH VAQTI

Umumiy vaqt – 30 daqiqa

1-savol uchun – 10 daqiqa

2-savol uchun – 10 daqiqa

3-savol uchun – 10 daqiqa

BAHOLASH MEZONLARI

Ball	Baho	Talabgorning bilim darajasi
90-100	A'lo	Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar fani metodologiyasining asosiy qonun-qoidalarini hamda siyosiy fanlarning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati to'g'risida aniq bilimga ega bo'lish va to'liq xulosa chiqarish. Fanning bilish konsepsiyalari to'g'risida ijodiy fikrlay olish. Siyosiy fanlar metodologiyasi to'g'risida mustaqil mushohada yurita olish. Nazariy bilimni amaliyotda qo'llay bilish. Mavzularning mazmun va mohiyatini to'liq tushunish va ularni bayon qilib berish hamda to'liq tasavvurga ega bo'lish.
70-89	Yaxshi	Siyosiy fanlar ta'limotlari to'g'risida mustaqil mushohada yurita olish. Nazariy bilimni amaliyotda qo'llay olish. Mavzularning mazmun va mohiyatini to'liq tushunish va ularni bayon qilib berish hamda to'liq tasavvurga ega bo'lish.
60-69	Qoniqarli	Mavzularning mohiyatini tushunish va ularni bayon qilib berish hamda tasavvurga ega bo'lish.
0-59	Qoniqarsiz	Siyosiy fan yuzasidan aniq tasavvurga va ko'nikmaga ega bo'lmaslik.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – T., 2017.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. 2022 йил 28 январь. // www.lex.uz.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон – 2030 стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон 2023 йил 11 сентябрь. // www.lex.uz.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.- Toshkent: O'zbekiston, 2017 y.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- Toshkent: O'zbekiston, 2017 y.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- Toshkent: O'zbekiston, -2017.
8. Эргашев И. ва бошқалар. Политология. Ўқув қўлланма. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2005.
9. Пугачёв В.П., Соловев А.И. Сиёсатшуносликка кириш. –Т.: Янги аср авлоди, 2004.
10. Политология. С.Жўраев муҳаррирлигида.-Т.: ТДЮИ, 2006.
11. Одилқориев Т., Раззоқов Д. Сиёсатшунослик. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 2011.
12. Жўраев Н. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Ғ.Ғулом номидаги НМИУ. - Т.2009.
13. Жўраев Н. Тафаккурдаги эврилиш. – Т.: Шарқ, 2001.
14. Назаров Қ., Холбеков А., Умарова Н. Сиёсий бошқарув. Бошқарув сотсиологияси, психологияси ва акмеология асослари -Т.: Академия, 2007.
15. Холбеков А., Жумаев Р., Умарова Н. ва бошқ. Бошқарувнинг ижтимоий-сиёсий йўналишлари -Т.: Ғ. Ғулом, 2008.
16. Бўриева М. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти ўқув қўлланма. - Т.: ТДЮИ, 2006.
17. Қирғизбоев М. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма. - Т.: Наврўз, 2014.
18. Отамуротов С., Қувватов Н. Кучли давлатдан – кучли жамиятга: Олий ўқув юртлар учун ўқув қўлланма (муаллифлар жамоаси). Истиклол, демократия фуқаролик жамияти. – Т.: 2003.
19. Саидов С. Ижтимоий капитал - фуқаролик жамиятининг муҳим мезони. монография –Т.: 2019. -172 б.
20. Саидов С. Фуқаролик жамияти (Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтларининг шаклланиши ва ривожланиши). Ўқув қўлланма – Т.: 2020. – 128 б.
21. Saidov S.Sh. Siyosatshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. O'zDJTU 2025-yil 30-apreldagi 203/11-08-sonli buyrug'iga asosan. –Toshkent, – 180 bet.